
“Bahor keldi seni so‘roqlab”

O‘zbek xalqining sevimli shoirasi Zulfiya Isroilova–oddiy inson qalbini o‘tkir his qilgan dilkash ijodkor, sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavor kurashgan ayol. Zulfiya ijodining o‘ziga xosligi zamondoshlarimiz e‘tirofida o‘z ifodasini topgan.

Inson ruhiyati dunyosining betakror kuychisi, O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiya Isroilova tavalludining 108 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston tumani Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida 5-8-sinflar o‘rtasida “Bahor keldi seni so‘roqlab” mavzusida ijodiy tanlovlar tashkil etildi.

Tanlovda o‘quvchilar Zulfiyaxonimning she‘rlarini yod etish, shoiraning qo‘shiqqa aylangan she‘rlarini ijro etish, ijodiy ishlar tanlovi (nasr, nazm) hamda shoiraning she‘rlari asosida rasm chizish shartlarida bellashdilar.

Ushbu shartlar natijasiga ko‘ra 3-o‘rinni 8 “B”, 2-o‘rinni 8 “D”, 1-o‘rinni 7 “A” sinf o‘quvchilari qo‘lga kiritdi.

Barcha faol ishtirokchilar maktab-internati tomonidan munosib rag'batlantirildi.

2023-03-01 23:44:17